

INFORMATIKA FANNI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR

O.A.Sulaymonova

*Farg'ona viloyati pedagogik mahorat
markazi "Aniq va tabiiy fanlar
metodikasi" kafedrası o'qituvchisi*

Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning dolzarb vazifalari - zamonaviy jamiyatning raqamli transformatsiyasi sharoitida o'quvchilarni texnologiyalarni samarali qo'llashga o'rgatish va ularni axborotlashgan dunyoga tayyorlashga qaratilgan. Bu fan nafaqat texnik bilimlarni berish, balki ijodiy fikrlash, axborot xavfsizligi va zamonaviy texnologiyalarni mas'uliyatli qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Ya'ni o'quvchilarga kompyuter, internet va zamonaviy texnologiyalardan foydalana olishni o'rgatish, axborotlarni qidirish, tahlil qilish va taqdim etish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish, o'quvchilarda algoritmlarni tuzish va tahlil qilish, muammolarni tizimli hal qilish qobiliyatini rivojlantirish, dasturlash asoslari bilan tanishtirish va boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni berish, Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish usullarini o'rgatish, kiberxavfsizlikning asosiy qoidalariga rioya qilish va xavfsiz internet muhitida ishlashni tushuntirish, grafik dizayn, multimedia tahrirlash va boshqa ijodiy texnologiyalardan foydalanish, innovatsion texnologiyalarga asoslangan loyihalar ishlab chiqish.

Axborot etikasi va mas'uliyatni shakllantirish uchun o'quvchilarni axborotdan foydalanishda huquqiy va axloqiy tamoyillarga rioya qilishga o'rgatish va mualliflik huquqiga rioya qilish va soxta ma'lumotlarni aniqlash malakalarini rivojlantirish kerak bo'ladi.

"Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning dolzarb vazifalari o'quvchilarda zamonaviy texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalana olishga bo'lgan qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu fan o'quvchilarning kelajakdagi hayotlarida muhim bo'lgan raqamli savodxonlik, ijodkorlik, axborot xavfsizligi va algoritmik fikrlashni shakllantiradi. Shu bilan birga, jamiyatda AKTning samarali va mas'uliyatli qo'llanishiga hissa qo'shadi.

XXI asr ko'nikmalari tavsifi - tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, kreativlik, tadqiqot va tahlil qilish, mustaqillik, tashabbuskorlik va qat'iylik, ma'lumotlardan foydalanish, tizimli fikrlash, muloqot qilish.

XXI asr ko'nikmalari zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va qobiliyatlarni to'plamidir. Ular insonning

texnologik, ijtimoiy va intellektual ehtiyojlariga javob berib, shaxsning raqamli dunyoda o'z o'rnini topishiga yordam beradi.

XXI asrning asosiy ko'nikmalari tanqidiy fikrlash bo'lib bu ma'lumot, fikr yoki hodisani chuqur tahlil qilish, baholash va asosli xulosa chiqarish jarayonidir. U insondan shunchaki axborotni qabul qilish emas, balki uni tushunish, savollar berish, dalillarni solishtirish va mustaqil qaror chiqarishni talab etadi. Tanqidiy fikrlash orqali inson haqiqatni aniqlashga, noto'g'ri yoki asossiz fikrlarni farqlashga hamda muammolarga ijodiy yechim topishga o'rganadi. Tanqidiy fikrlash insonni mustaqil, mas'uliyatli va ongli qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllantiradi. U insonning ijodkorlik, muammolarni hal qilish va yangilik yaratish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Shu sababli tanqidiy fikrlash bugungi raqamli va axborotga to'la davrda eng zarur ko'nikmalardan biri hisoblanadi. Kommunikatsiya esa odamlar o'rtasida axborot, fikr, his-tuyg'u va tajribalarni o'zaro almashish jarayonidir. U insonlarning bir-birini tushunishi, hamkorlikda ishlashi va o'zaro munosabatlarni shakllantirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikatsiya og'zaki (nutq, suhbat, nutqiy chiqishlar), yozma (xatlar, elektron pochta, hujjatlar), noverbal (imo-ishora, mimika, tana holati) va elektron shakllarda amalga oshiriladi. Samarali kommunikatsiya ikki tomonlama jarayon bo'lib, bunda nafaqat axborotni yetkazish, balki uni to'g'ri tushunish ham muhimdir. Fikrni aniq, mantiqli va hurmat bilan ifoda etish, tinglovchining e'tiborini saqlash va javobni to'g'ri talqin qilish bu jarayonning ajralmas qismidir. Shuningdek, kommunikatsiya jarayonida til, madaniyat, muhit va shaxsiy xususiyatlar katta rol o'ynaydi.

Ta'lim jarayonida kommunikatsiya o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro tushunishni ta'minlaydi, bilim almashish samaradorligini oshiradi. Ish joyida esa u jamoaviy ish, muammolarni birgalikda hal qilish va tashkilotning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi va zamonaviy davrda kommunikatsiya ko'p jihatdan raqamli texnologiyalar orqali amalga oshmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar va messenjerlar axborot almashinuvini tez, qulay va keng miqyosda olib borish imkonini bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, kommunikatsiya — bu insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqaning asosi bo'lib, u nafaqat ma'lumot almashish, balki o'zaro tushunish, hamkorlik va ishonchni shakllantirish vositasidir.

References

1. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Xamidov, A., Qodirov, B., & To'laganov, S. Informatika va axborot texnologiyalari. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2021.
3. Qodirov, B. Axborot texnologiyalarini o'qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2020.

4. Mavlonov, O., & Nurmatov, R. Axborot madaniyati va axborot xavfsizligi. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019.
5. Turdiyev, M. Zamonaviy ta’limda raqamli kompetensiyalar. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2022.